

## PECULIARITIES OF THE KOVOL PLANT GROWING IN THE TERRITORY OF KARAKALPAKSTAN

Yuldashova Lobarxon Mominjan qizi

Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz

3rd year biology student

[lobarxon2505@icloud.com](mailto:lobarxon2505@icloud.com)

**Annotation:** Nowadays, the demand for medicinal plants is increasing. Therefore, the study of medicinal plants, their effect on diseases, and the preparation of medicines from them are relevant topics. This article presents specific information about the plant (*Capparis Spinosa* L), which is used in medicine and food industry.

**Key words:** *Capparis Spinosa* L, gray soil, berries, organic fertilizers, chemical composition, medicinal and nutritional properties.

O'zbekistonda dorivor o'simliklarning ko'plab yovvoyi va madaniy turlari o'sib, rivojlanadi va hosil beradi. Ulardan bir qator kasalliklarga qarshi kurashda foydalanish mumkin. Shunga muvofiq holda, turli tuproq-iqlim sharoitlarida o'sadigan yovvoyi dorivor o'simliklarni madaniylashtirish, ularni etishtirish agrotexnikasini ishlab chiqish asosida dori mahsulotlari xom-ashyosini sanoat miqiyosida ishlab chiqarish davr talabi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-apreldagi "Yovvoyi holda o'suvchi dorivori o'simliklarni muxofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4670-son qarori sohani tubdan rivojlanishining huquqiy asoslarini yaratib berdi. Ushbu qarordagi vazifalarni amalga oshirish natijasida dorivor o'simliklarni nafaqat tabiatda yovvoyi holda terib olish, balki madaniy holda plantatsiya usulida ko'paytirish va qayta ishlashni tashkil etish bilan shug'ullanuvchi fermerlar va tadbirkorlar soni ham sezilarli darajada ortib bormoqda.

Keyingi yillarda respublikamizda farmatsevtika sanoati jadallik bilan rivojlanmoqda va dorivor o'simliklarga bo'lgan talab kun sayin ortmoqda. Bu esa,



yovvoyi holda hsayotgan dorivor o'simliklarning madaniylashtirishni taqoza etmoqda. Shu sababdan, tabiatda uchraydigan hamda chet el florasiga mansub dorivor o'simliklarni introduksiya qilish, introduksiya sharoitida ularning bioekologik xususiyatlari, ko'paytirish usullarini o'rganish hamda etishtirish agrotexnologiyalarini ishlab chiqish muhim va dolzarb masala hisoblanadi.

Kovul, kovar o'simligi (*Capparis spinosa* L)ning shifobaxsh xususiyatlari, xalq tabobatida qo'llanilishi haqida so'z boradi. An'anaviy va ilmiy tibbiyotda, qadimgi va zamonaviy o'simliklardan foydalanish haqida ma'lumot berilgan. Yallig'lanishga qarshi, allergiyaga qarshi, neyroprotektiv, diabetga qarshi gipolipidemik xususiyatlari. Bugungi ekologik vaziyatda yurtimiz yoshlari va kelajagi bo'lgan yoshlarning bilimini oshirish maqsadida kapari o'simligining shifobaxsh va ozuqaviy ahamiyati haqida tushuntiriladi. Qoraqalpog'istonda 360 ta dorivor o'simliklar mavjud bo'lib, barcha o'simliklarning 37% dan ortig'i dorivor o'simliklardir [8-9]. Kovul o'simligi kovuldoshlar (*Capparaceae*) oilasiga kiruvchi yarim buta, yovvoyi ko'p yillik o't bo'lib, yoyilib o'sishga moslashgan o'simlik hisoblanadi. Uzunligi 2,5 m, shoxalangan. Barglari 5-6 sm, yumaloq, tuxumsimon, barglari yashil rangli. Barglari orasida 1 juft tikanlari bor. Gullari yirik, oq yoki och pushti, aktinamorf. Mevasi qizil etli, ko'p urug'li hisoblanib, asosan rezavor o'simligi hisoblanadi. Cho'l zonalarindada, adirlarda, yo'l bo'ylarida, devorlar ustida, ekinlar orasida o'sadi.

Issiqlikka chidamli va qurg'oqchilikka chidamli. Boshqa butalar qila olmaydigan ekstremal ekologik sharoitlarda o'sishi mumkin. Mevalarning tarqalishi birinchi navbatda qushlar va boshqa hayvonlar tomonidan sodir bo'ladi.

**XULOSA:** O'zbekistonda mahalliy floraga mansub dorivor o'simliklarni muhofaza qilish, madaniylashtirish va ularni qayta ishlash asosida tabiiy dori vositalaritayrlashni rivojlantirishga alohida etibor qaratilayotganligini inobatga olib, bizlar ham kovul (*Capparis Spinosa* L) o'simligining dorivorlik xususiyatini o'rganish, tabiiy holda o'sadigan ushbu o'simlikni madaniylashtirish, uni etishtirish ko'lamini kengaytirish va uning etishtirishning agrotexnikasini ishlab chiqish bo'yicha tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.



**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Eshmuratov R.A., Ajiev A.B. //QORAQALPOG'ISTON DORIVOR O'SIMLIKLARI// Toshkent "Tafakkur avlodi" 2020.
2. Ajiev A.B., \*Usnatdinov J.N. KOVUL O'SIMLIGININ' TIBBIYOTDAGI VA OZIQ-OVQAT SANOATIDAGI AHAMIYATIN ORGANISH // Международный научный журнал «Новости образования: исследование в XXI веке» № 8(100), часть 2. март, 2023 г [179,180,181].
3. <https://cyberleninka.ru/article/n/lechebnye-svoystva-i-osobennosti-rasteniya-kapersy-capparis-spinosa-1>
4. Axmatovich J. R. In vitro rearing of trichogramma (Hymenoptera: Trichogrammatidae) //European science review. – 2016. – №. 9-10. – С. 11-13.
5. Jumaev R. A. et al. The technology of rearing Braconidae in vitro in biolaboratory //European Science Review. – 2017. – №. 3-4. – С. 3-5.
6. Жумаев Р. А. Массовое размножение трихограммы на яйцах хлопковой совки в условиях биологической лаборатории и ее применение в агробиоценозах //Халқаро илмий-амалий конференция “Ўзбекистон мева-сабзавот маҳсулотларининг устунлиги” мақолалар тўплами. Тошкент. – 2016. – С. 193-196.
7. Жумаев Р. А. Значение представителей семейства BRACONIDAE в регулировании численности совок в агробиоценозах //ЎЗМУ Хабарлари. – 2017. – Т. 3. – №. 1.
8. Жумаев Р. А. РАЗМНОЖЕНИЯ ИН ВИТРО BACON HAVETOR SAY И BRACON GREENI ASHMEAD //Актуальные проблемы современной науки. – 2017. – №. 3. – С. 215-218.
9. Axmatovich J. R. In Vitro Rearing of Parasitoids (Hymenoptera: Trichogrammatidae and Braconidae) //Texas Journal of Agriculture and Biological Sciences. – 2022. – Т. 4. – С. 33-37.

10. Suleymanov B. A., Jumaev R. A., Abduvosiqova L. A. Lepidoptera Found In Cabbage Agrobiocenosis The Dominant Types Of Representatives Of The Category Are Bioecology //The American Journal of Agriculture and Biomedical Engineering. – 2021. – T. 3. – №. 06. – C. 125-134.